

MAKTABGACHA TA'LIMDA ETNOPEdagogIK AN'ANALARNING AHAMIYATI HAMDA MILLIY URF-ODATLAR, QADRIYATLAR VA MAROSIMLAR TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

Surayyo Arziqulova Fayzullayevna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti tadqiqotchisi

Boltayeva Manzura Boyturayevna

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim –tarbiya jarayonlarida etnopedagogika fanining ahamiyati ya'ni bolalarga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya berish jarayonlarini takomillashtirish, bolalar ongiga milliylik ruhini, milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar hamda marosimlarni tarbiya vositasi sifatida ta'lim jarayonlarining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda zarur shart –sharoitlar bilan tanishtirib, o'rgatib borish qaratilgan chora-tadbirlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Etnopedagogika, ta'lim, tarbiya udumlar, urf-odatlar, an'analar, marosimlar, ota-onalar, hamkorlik malaka, ko'nikma, ijodiy erkinlik, munosabat, ochiqlik, o'zaro hurmat, madaniyat, ma'naviyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается значение этнопедагогике в образовательном процессе в дошкольных образовательных организациях, то есть мероприятий, направленных на совершенствование процессов воспитания в духе национальных ценностей, внедрение в сознание детей духа народности, национальных обычаев, традиций и обычаев, обрядов, использование широких возможностей образовательного процесса как средства воспитания.*

Ключевые слова: *Этнопедагогика, образование, воспитание, обычаи, традиции, обряды, родители, сотрудничество, умения, навыки, творческая свобода, отношение, открытость, взаимоуважение, культура, духовность.*

Annotation: *This article discusses the importance of ethnopedagogy in educational processes in preschool educational organizations, that is, measures aimed at improving the processes of upbringing in the spirit of national values, introducing the spirit of nationality, national customs, traditions and customs and rituals into the minds of children as a means of upbringing, using the wide possibilities of educational processes, and teaching them the necessary conditions.*

Keywords: *Ethnopedagogy, education, upbringing customs, customs, traditions, rituals, parents, cooperation, skills, skills, creative freedom, attitude, openness, mutual respect, culture, spirituality*

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari - ta'lim olish jarayonlarining eng boshlang'ich va poydevor qismi hisoblanadi. Ta'lim jarayonlarini to'g'ri tashkil etish birinchi navbatda inson o'zligini tanib boshlagan davrdan boshlanadi. Etnopedagogika fanining maktabgacha ta'limdagi o'rnini katta ahamiyatga ega, chunki bu fan orqali bolalarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar va xalq og'zaki ijodi tarbiya beriladi. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmonida ham maktabgacha ta'lim muassasalarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlashga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish kabi fikrlar ilgari surilgan"[1] Milliy qadriyatlarni singdirish bolalarga o'z xalqining urf-odatlari, marosimlari, xalq bayramlari haqida tushunchalar beriladi, bu esa ularning milliy o'zligini anglashlariga xizmat qiladi. Tarixiy merosni asrash xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, dostonlar orqali bolalar xalq og'zaki ijodi bilan tanishadilar va bu orqali madaniy merosga hurmat bilan qarashni o'rganadilar.

"Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma'naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o'zlikni anglash g'oyalarni yanada chuqur singdirish, "ommaviy madaniyat" ko'rinishidagi yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi".[2] Etnopedagogika orqali bolalarga halollik, to'g'rilik, sabr-toqat, kattalarga hurmat kabi insoniy fazilatlar singdiriladi. Oila tarbiyasi bilan uyg'unlikda etnopedagogik yondashuv oilaviy tarbiyani qo'llab-quvvatlaydi, chunki ko'plab xalq odatlari va urf-odatlari oilada asoslanadi. Bolalar xalq ertaklari, qo'shiqlari, she'rlari orqali o'z ona tilini to'g'ri va ravon gapirishni o'rganadilar. Milliy kuy-qo'shiqlar, kiyim-kechaklar, hunarmandchilik bilan tanishtirish orqali bolalarda estetik did tarbiyalanadi. Bolalarda tarbiya turlari orqali ijodiy fikrlashni o'rgatishni maqsad qilish lozim. Bolalar xalq og'zaki ijodiy namunalar asosida bolalar mustaqil fikrlash, tasavvur qilish, voqealarni tahlil qilishga o'rganadilar.

Etnopedagogika maktabgacha ta'limda nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy jarayonning ajralmas bir qismi bo'lib, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Etnopedagogikada milliy urf-odatlarning bolalar ongiga singdirish yo'llari bolalarning yoshiga mos, qiziqarli va ta'sirchan usullar orqali amalga oshiriladi. Og'zaki ijod vositalari orqali masalan ertaklar bolalar hayotida eng muhim tarbiyalash vositasi hisoblanadi. Har bir ertakda axloqiy g'oya va milliy qadriyat yashiringan bo'ladi. Masalan, "Zumrad va Qimmat", "Boy va kambag'al" kabi ertaklar orqali mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat singari tushunchalar beriladi.

Topishmoq, maqol, matallar esa bolalarda tez fikrlash, til boyligini oshirish bilan birga xalq donishmandligi va hayotiy tajribalarini tushunishga yordam beradi.

“Maktabgacha ta’limtashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy tuyg’uni shakllantirish maqsadida o’tilayotgan mashg’ulotlar mavzulari bolaning har tomonlama rivojlanishiga, yuksak odob- axloqli, milliy g’ururli komil inson bo’lib tarbiyalashiga yordam bermog’i lozim”[3] Bayramlar va marosimlar masalan Navro’z, sumalak sayli, chaqaloq to’y, sunnat to’y kabi milliy bayram va marosimlarda ishtirok ettirish: Bu orqali bolalar o’z milliy qadriyatlarini amaliy hayotda ko’radi va anglaydi. Milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi mini sahna ko’rinishlari, teatrlashtirilgan o’yinlar “Navro’z sahnasi”da bahor, yangilanish, mehr-oqibat g’oyalari aks ettirish bolalar hayotidagi eng arzirli hayot ko’rinishlarini gavdalantirib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning asosiy faoliyati o’yin bo’lganligi bois milliy xalq o’yinlari (chillak, arqon tortish, halimtoy) jamoaviylik, do’slik, halollik kabi qadriyatlar ongiga singdirib borishni talab etadi.

O’yinlar orqali ham madaniyat, axloq, o’zaro hurmat va hamkorlik ruhida tarbiya beriladi. Bunda barcha milliy o’yinlar amaliy mashg’ulotlar kabi tashkil etilib milliy hunarmandchilik elementlarini o’rgatish masalan gilam to’qish, qo’g’irchoq yasash, do’ppi tikish kabi faoliyatlar orqali milliy madaniyatga qiziqish uyg’otiladi. Milliy taom tayyorlash va ularni hayotimizgadi o’rni haqida tasavvurlarni uyg’otish juda muhim hisoblanadi. Masalan, sumalak, osh, non yopish jarayonida ishtirok etish orqali urf-odatlar o’rgatiladi. Milliy kiyim va musiqa vositasida esa bolalarni milliy liboslarda kiyintirish va milliy kuy-qo’shiqlarni eshittirish orqali estetik did va milliy iftixor tarbiyalanadi. Bu jarayonlarda eng avval oila hamkorligini to’g’ri yo’lga qo’yish lozim. “Oilaviy va madaniy-maishiy xulq madaniyatini oshirishning samarali yo’llari ota-onalarning bolalarga sarflagan vaqtlari bilan emas yoki tarbiyachining bunda kunning o’tishigagina emas, balki ularning tarbiyasiga, oilaning turmush tarziga, jamoatchilik obro’si va shaxsiy namunalariga bog’liq. Oiladagi ota-onalar, bog’chadagi tarbiyachi va boshqa xodimlar, hatto katta yoshdagi opa-ukalar hamda singillarning o’zaro munosabatlari xulq madaniyatining boshlan0ich shakllanishida o’ziga xosligini ko’rsatadi” [4] Ota-onalar ishtirokida tadbirlar tashkil qilish orqali bolalar urf-odatlarini faqat bog’chada emas, balki oilada ham o’rganadilar. Ota-onalarning xalq urf-odatlariga amal qilishi bolaga eng kuchli ta’sir ko’rsatadi va oilaviy qadriyatlar bolalar ongida bir umrga saqlanib qoladi.

Milliy urf-odatlarini bola ongiga singdirish etnopedagogikaning asosiy vazifalaridan biri bo’lib, bu jarayon doimiylik, izchillik va mehr bilan olib borilganda, bola o’z milliyligini chuqur anglab ulg’ayadi.

Etnopedagogikada an’analar va udumlarning bolalar hayotidagi o’rni juda muhim bo’lib, ularning shaxsiyati, dunyoqarashi, axloqiy tarbiyasi va milliy o’zlikni anglash jarayonida bevosita ta’sir ko’rsatadi. An’analar va udumlar orqali bola o’z xalqining madaniyati, tarixi, qadriyatlarini anglaydi. U o’zini shu xalqning bir bo’lagi

sifatida his qiladi. Yil boshida Navro'z bayramining nishonlanishi bolaga yangilanish, tabiatga mehr, insonlarga yaxshilik qilish tushunchalarini singdiradi. An'analar – bu xalqning yillar davomida shakllangan odob-axloq me'yorlari. Ular bolaga to'g'rilik, halollik, kattalarga hurmat, mehr-oqibat, sabr kabi fazilatlarni o'rgatadi.

An'analar va udumlar bolani jamiyatdagi muayyan xatti-harakatlarga tayyorlaydi. U qanday vaziyatda qanday tutish kerakligini asta-sekin o'rganadi. An'anaviy ertaklar, maqollar, topishmoqlar bolalar tilini, tafakkurini, tasavvurini boyitadi. Ular obrazli fikrlashga, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yechim topishga o'rgatadi.

Etnopedagogikada marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rne nihoyatda muhim, chunki marosimlar xalqning asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy tajribasining ifodasidir. Ular bolalarning shaxsiyati, axloqiy fazilatlari, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini shakllantirishda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Marosimlar orqali bolalarga xalqning urf-odatlarini, diniy e'tiqodi, axloqiy me'yorlari singdiriladi. Bu esa ularning milliy o'zlik va madaniy merosga hurmatini oshiradi. Marosimlar odob-axloq qoidalariga amal qilishni, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr ko'rsatishni o'rgatadi. Mehmon kutish marosimi orqali bolalar mehmondo'stlik, hurmat, xushmuomalalikni o'rganadilar. Marosimlar jamoaviy tarzda o'tkazilishi orqali bolalarda o'zaro yordam, do'stlik, birdamlik ruhini shakllantiradi. Marosimlarda milliy kuy-qo'shiqlar, kiyimlar, bezaklar, san'at turlari ishtirok etadi, bu esa bolalarda go'zallikka mehr uyg'otadi. Marosimlarda ishtirok etgan bola xalq og'zaki ijodiyoti – duo, tilaklar, tabrik so'zlari, maqollar, she'rlar bilan tanishadi va ularni yod oladi. Bola marosimlar orqali qanday kiyinish, so'zlash, muomala qilish, jamiyatda o'zini tutish qoidalarini o'rganadi.

Etnopedagogikada marosimlar xalq pedagogikasining jonli vositasi bo'lib, ular orqali bolalarning ruhiy-axloqiy, estetik, ijtimoiy jihatdan kamol topishi ta'minlanadi. Shu bois, marosimlarni tarbiya jarayonida samarali qo'llash muhimdir. Etnopedagogikada marosimlarning tarbiya vositasi sifatidagi o'rne nihoyatda muhim, chunki marosimlar xalqning asrlar davomida shakllangan tarbiyaviy tajribasining ifodasidir. Ular bolalarning shaxsiyati, axloqiy fazilatlari, milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini shakllantirishda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Etnopedagogika — bu xalqning asrlar davomida to'plagan tarbiyaviy tajribasiga asoslangan xalqona tarbiya tizimidir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida etnopedagogik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Milliy urf-odatlar, an'ana va udumlar, marosimlar bolalarning ongini, axloqiy qarashlarini, dunyoqarashini va milliy o'zlikni anglashini shakllantirishda beqiyos ta'sir kuchiga ega. Bunday qadriyatlar orqali bolalarga mehr-oqibat, odob-axloq, hurmat, vatanparvarlik, estetik did kabi insoniy fazilatlar singdiriladi. Marosimlar, urf-odatlar va an'analar esa ushbu tarbiyani jonli, hayotiy misollar bilan boyitadi.

Shu bois, etnopedagogika nafaqat xalqning madaniy merosini avloddan avlodga yetkazish vositasi, balki zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy qadriyatlarni uyg'un va samarali tarzda singdirish orqali ular mustahkam axloqiy poydevor asosida shakllanadi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2017-yilda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli farmoni. [1]
2. Xasanboeva O, "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi", Toshkent 2006 yil.[2]
3. Shodmonova Sh, "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2008 yil.[3]
4. Qurbonov N.M. Milliy tarbiya T.: Ma'naviyat, 2007 yilAzizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo'g'irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarini shakllantirish. -T., 2010.[4]
5. " Maktabgacha pedagogika" Sh. Sodikova. Toshkent - 2013
6. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish jarayonida ertaklar asosida atrof-muhit bilan tanishtirish /Ilmiy to'plam. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000.